

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA IJTIMOIIY HIMOYA INTEGRATSIYASI

Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti

marufaliyev5955@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadal rivojlanishi ijtimoiy himoya tizimlarining institutsional tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari va xizmatlar ko'rsatish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy, alohida-alohida faoliyat yurituvchi ijtimoiy himoya institutlari o'rnini tobora ko'proq integratsiyalashgan axborot tizimlari, yagona ijtimoiy reyestrlar va raqamli to'lov mexanizmlariga asoslangan kompleks modellar egallamoqda. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonni baholash va boshqarishga qaratilgan metodologik yondashuv taklif etiladi. Tadqiqotda tizimli va jarayonli yondashuv asosida ijtimoiy himoya tizimining asosiy funksional bo'g'inlari — identifikatsiya, ijtimoiy reyestr, ehtiyojni baholash, qaror qabul qilish, G2P to'lovlar va monitoring jarayonlarining integratsiyalashuv darajasi o'rganiladi. Integratsiyaning samaradorligi institutsional muvofiqlik, ma'lumotlar almashinuvi, xizmatlar uzluksizligi va foydalanuvchi tajribasi mezonlari orqali baholanadi. Taklif etilgan yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy himoya tizimlarini fragmentatsiyadan integratsiyalashgan modelga o'tkazish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi hamda O'zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ijtimoiy himoya integratsiyasi, integratsiyalashgan ijtimoiy himoya tizimi, ijtimoiy reyestr, axborot tizimlari interoperabiliteti, G2P to'lovlar, SPIS va MIS, institutsional muvofiqlik, raqamli boshqaruv

Abstract: The rapid advancement of digital transformation processes is fundamentally reshaping the institutional structure, governance mechanisms, and service delivery methods of social protection systems. Traditional, fragmented social protection institutions are increasingly being replaced by integrated models based on unified information systems, social registries, and digital payment mechanisms. This article provides a scientific analysis of the interrelationship between digital transformation and the integration of social protection systems and proposes a methodological approach aimed at assessing and managing this process. The study applies a systemic and process-based approach to examine the degree of integration of key functional components of the social protection system, including identification, social registries, needs assessment, decision-making, government-to-person (G2P) payments, and monitoring processes. The effectiveness of integration is evaluated through criteria such as institutional coordination, data exchange, service continuity, and user experience. The proposed approach enables the formulation of scientifically grounded conclusions on transitioning social protection systems from fragmented arrangements to integrated models under conditions of digital transformation and has practical relevance for improving social protection policy in the context of Uzbekistan.

Keywords: digital transformation, social protection integration, integrated social protection system, social registry, information systems interoperability, government-to-person (G2P) payments, social protection information systems (SPIS) and management information systems (MIS), institutional coordination, digital governance

KIRISH

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari davlat boshqaruvi tizimlarining barcha yo‘nalishlariga, jumladan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya sohasiga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ma’lumotlar almashinuvi imkoniyatlarining kengayishi va raqamli platformalarning joriy etilishi ijtimoiy himoya tizimlarining institutsional tuzilmasi, boshqaruv mexanizmlari hamda xizmatlar ko‘rsatish usullarini tubdan qayta shakllantirmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy yordam va xizmatlarni aholiga yanada

tezkor, shaffof va manzilli yetkazish imkonini yaratish bilan birga, ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun yangi shart-sharoitlarni vujudga keltirmoqda.

An'anaviy ijtimoiy himoya tizimlari, odatda, alohida institutlar, mustaqil ma'lumotlar bazalari va cheklangan idoralararo hamkorlikka asoslangan bo'lib, bunday fragmentatsiyalashgan tuzilma ijtimoiy yordamlarni rejalashtirish va yetkazib berishda muayyan muammolarni keltirib chiqargan. Xususan, ma'lumotlarning takrorlanishi, noto'liq yoki eskirgan axborotga asoslangan qarorlar, ma'muriy xarajatlarning yuqoriligi hamda ehtiyojmand aholining bir qismini qamrab olmaslik holatlari ushbu tizimlarning asosiy kamchiliklari sifatida namoyon bo'lgan. Raqamli transformatsiya esa ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ijtimoiy himoya tizimlarini integratsiyalashgan axborot arxitekturasida qayta tashkil etish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy himoya tizimlarining samarali ishlashi integratsiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Yagona ijtimoiy reyestrlar, integratsiyalashgan ijtimoiy himoya axborot tizimlari (SPIS va MIS), shuningdek, government-to-person (G2P) raqamli to'lov mexanizmlarining joriy etilishi ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim institutsional burilish yasamoqda. Bunday integratsiya ijtimoiy himoya tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlab, ma'lumotlar almashinuvi va qaror qabul qilish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi jarayoni murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u faqat texnologik yangilanishlar bilan cheklanmaydi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli tizimlarning joriy etilishi institutlararo muvofiqlik yetarli darajada ta'minlanmagan, huquqiy-me'yoriy baza va boshqaruv mexanizmlari moslashtirilmagan sharoitda kutilgan natijalarni bermasligi mumkin. Bundan tashqari, raqamli tafovut, ya'ni aholining ayrim qatlamlari uchun raqamli xizmatlarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini kuchaytiradi.

Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi masalasi tobora ko‘proq muhokama qilinayotgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonni kompleks baholash va boshqarishga qaratilgan metodologik yondashuvlar yetarlicha shakllanmagan. Mavjud tadqiqotlar ko‘pincha ijtimoiy reyestrilar, elektron to‘lovlar yoki axborot tizimlarining texnik jihatlariga alohida e‘tibor qaratadi, biroq ijtimoiy himoya tizimini yaxlit integratsiyalashgan mexanizm sifatida tahlil qilish masalasi cheklangan darajada yoritiladi. Natijada, raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy himoya tizimiga real ta‘sirini aniqlash va baholashda ilmiy bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Yagona ijtimoiy reyestrning joriy etilishi, proaktiv ijtimoiy yordam mexanizmlarining rivojlanishi, bank va to‘lov infratuzilmasi bilan integratsiya qilinayotgan G2P mexanizmlari hamda mahalla institutining raqamli platformalar bilan bog‘lanishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Biroq mazkur islohotlarning qanchalik samarali amalga oshirilayotgani, ular ijtimoiy himoya tizimining barqarorligi va adolatli ishlashiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani ilmiy asoslangan tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasining mohiyati va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash hamda ushbu jarayonni baholashga qaratilgan metodologik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida ijtimoiy himoya tizimining asosiy funksional bo‘g‘inlari o‘rtasidagi integratsiya darajasi, institutlararo muvofiqlik, ma‘lumotlar almashinuvi va xizmatlar uzluksizligi masalalari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiya jarayonlarini ijtimoiy himoya siyosati bilan uyg‘unlashtirish, fragmentatsiyalashgan tizimlardan integratsiyalashgan modellarga o‘tish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlar, siyosiy-huquqiy hujjatlar hamda amaliy loyiha materiallarida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan ijtimoiy himoya tizimlarining fragmentatsiyalashgan tuzilmasidan integratsiyalashgan, ma'lumotlarga asoslangan va raqamli boshqaruv mexanizmlariga o'tish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'pincha alohida jihatlar doirasida o'rganilib, kompleks metodologik yondashuv yetarlicha shakllanmagan.

Jahon banki tadqiqotlarida ijtimoiy himoya tizimlarining raqamli transformatsiyasi "digital delivery systems" va "integrated social protection information systems" tushunchalari orqali izohlanadi. Ushbu yondashuvda integratsiya ijtimoiy reyestrlar, identifikatsiya tizimlari, eligibility baholash mexanizmlari va G2P to'lovlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sifatida qoraladi. Jahon banki mualliflari raqamli transformatsiyaning asosiy natijasi sifatida ma'muriy samaradorlikning oshishi, targeting aniqligining yaxshilanishi va xizmatlar uzluksizligini ta'kidlaydi. Biroq mazkur tadqiqotlar ko'proq amaliy tavsiyalar va konseptual modellar bilan cheklanib, integratsiya jarayonining empirik baholash mexanizmlarini chuqur yoritmaydi.

Xalqaro mehnat tashkiloti va ISSA tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimlarining universal qamrov, inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'unlikda ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvda integratsiya nafaqat texnologik, balki institutsional va huquqiy jarayon sifatida talqin qilinadi. ILO tadqiqotlarida raqamli tizimlarning fragmentatsiyani kamaytirishdagi roli alohida e'tirof etilgan bo'lsa-da, baholash ko'proq normativ va sifat jihatlariga tayanadi hamda miqdoriy indikatorlar cheklangan darajada qo'llaniladi.

UNICEF va UNDP materiallarida ijtimoiy himoya axborot tizimlari (SPIS va MIS) markaziy o'rinda bo'lib, integratsiya ma'lumotlar almashinuvi, tizimlararo interoperabilitet va boshqaruv sifati orqali izohlanadi. Ushbu tadqiqotlarda raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya xizmatlarining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy omil

sifatida baholanadi. Shu bilan birga, adabiyotlarda ijtimoiy natijalar, ya'ni qamrov, foydalanuvchi tajribasi va ijtimoiy ta'sir bilan integratsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada empirik asoslanmagan.

OECD va Yevropa Ittifoqi tadqiqotlarida raqamli transformatsiya ijtimoiy xizmatlarni boshqarishning yangi modeli — “government as a platform” konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqiladi. Ushbu yondashuvda integratsiya turli davlat xizmatlari va ijtimoiy himoya institutlari o'rtasida yagona raqamli ekotizim yaratish orqali ta'minlanadi. Biroq mazkur tadqiqotlar asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslanib, rivojlanayotgan davlatlar sharoitiga to'liq mos keladigan metodologik yechimlarni taklif etmaydi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi bo'yicha mavjud ilmiy ishlarda uchta asosiy cheklov mavjud. Birinchidan, integratsiya jarayoni ko'pincha texnologik yondashuv doirasida tor talqin qilinadi. Ikkinchidan, tizim darajasidagi institutsional muvofiqlik va jarayon darajasidagi xizmatlar uzluksizligi o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada tahlil qilinmagan. Uchinchidan, raqamli transformatsiya natijalarini baholashda kompleks indikatorlar tizimi va empirik baholash dizaynlari kam qo'llaniladi.

Mazkur tadqiqotda ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida tizimli va jarayonli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy himoya tizimini yagona integratsiyalashgan mexanizm sifatida ko'rib, uning asosiy funksional bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga asoslanadi. Metodologiyaning markazida raqamli transformatsiya orqali ta'minlanayotgan integratsiya darajasini baholash g'oyasi yotadi.

Tadqiqotda uch darajali metodologik model qo'llanildi. Birinchi bosqichda tizim darajasidagi tahlil amalga oshirilib, institutsional tuzilma, huquqiy-me'yoriy baza, axborot tizimlari va ularning interoperabilitet darajasi baholanadi. Ikkinchi bosqichda jarayon darajasida ijtimoiy himoya xizmatlarini ko'rsatishning asosiy bosqichlari — identifikatsiya, reyestrda kiritish, ehtiyojni baholash, qaror qabul qilish va G2P to'lovlar o'rganiladi. Uchinchi bosqichda esa natija darajasida integratsiyaning

qamrov, xizmatlar uzluksizligi, shaffoflik va foydalanuvchi tajribasiga ta'siri tahlil qilinadi.

Metodologiyada miqdoriy va sifat tahlil usullari uyg'un holda qo'llaniladi. Miqdoriy tahlilda ma'muriy statistika, SPIS va MIS ma'lumotlari, to'lov tizimlari ko'rsatkichlari asosida integratsiya darajasi va samaradorlik baholanadi. Sifat tahlilida esa hujjatlar tahlili, ekspert intervyulari va foydalanuvchi so'rovlari natijalaridan foydalaniladi. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi jarayonlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun metodologik poydevor yaratadi.

NATIJALAR

Mazkur bo'limda raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi bo'yicha taklif etilgan metodologiya asosida olingan natijalar tizim, jarayon va natija darajalari kesimida yoritiladi. Tahlillar shartli-empirik ma'lumotlar, ochiq statistik manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlarida keltirilgan ko'rsatkichlar hamda raqamli islohotlar joriy etilishidan oldingi va keyingi holatlarni qiyoslash mantiqiga tayangan holda amalga oshirildi.

Birinchi navbatda tizim darajasidagi integratsiya natijalari ko'rib chiqildi. Raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida yagona ijtimoiy reyestr va ijtimoiy himoya axborot tizimlarining integratsiyasi institutlararo ma'lumotlar almashinuvi sifatini sezilarli darajada yaxshilagan. Tahlil natijalariga ko'ra, ilgari alohida yuritilgan ma'lumotlar bazalari o'rtasidagi takrorlanish holatlari integratsiyalashgan tizim joriy etilgach, o'rtacha 20–25 foizga qisqargan. Shu bilan birga, turli idoralar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni tekshirish va solishtirishga ketadigan vaqt 2–3 barobarga kamaygan.

Tizim darajasida integratsiyaning yana bir muhim natijasi institutsional muvofiqlikning kuchayishi bilan namoyon bo'ldi. Raqamli platformalar orqali ijtimoiy himoya, bandlik, soliq va bank tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib, qaror qabul qilish jarayonida axborot to'liqligi oshdi. Natijada, ijtimoiy yordam tayinlashda

subyektiv qarorlar ulushi 15 foiz atrofida kamaygan. Bu holat integratsiyalashgan axborot tizimlari boshqaruv sifatini oshirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Jarayon darajasidagi natijalar ijtimoiy himoya xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiyadan oldingi davrda ijtimoiy yordam olish uchun ariza topshirish, hujjatlarni tekshirish va qaror qabul qilish jarayonlari ko'p bosqichli va vaqt talab qiluvchi bo'lgan. Integratsiyalashgan raqamli tizimlar joriy etilgach, ushbu jarayonlar soddalashib, xizmat ko'rsatish muddati o'rtacha 30–40 foizga qisqargan. Xususan, ijtimoiy yordam tayinlash uchun zarur bo'lgan o'rtacha vaqt 20–25 ish kunidan 10–12 ish kunigacha kamaygan.

G2P to'lovlar integratsiyasi jarayon darajasidagi eng muhim natijalardan biri sifatida qayd etildi. Raqamli to'lov mexanizmlarining ijtimoiy himoya tizimi bilan integratsiyalashuvi natijasida nafaqa va ijtimoiy yordamlarni yetkazib berishda kechikishlar sezilarli darajada kamaygan. Tahlil natijalariga ko'ra, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi ko'rsatkichi 70–75 foizdan 90 foizdan yuqori darajaga yetgan. Shu bilan birga, bitta ijtimoiy to'lovni amalga oshirish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlari o'rtacha 25–30 foizga qisqargan.

Natija darajasidagi tahlillar raqamli transformatsiya va integratsiyaning ijtimoiy himoya tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Integratsiyalashgan tizimlar orqali ehtiyojmand aholini aniqlash aniqligi oshib, exclusion error darajasi taxminan 18–20 foizdan 10–12 foizgacha kamaygan. Shu bilan birga, inclusion error, ya'ni ijtimoiy yordam olish huquqiga ega bo'lmagan shaxslarning tizimga kirib qolish holatlari 14–15 foizdan 7–8 foizgacha qisqargan. Bu holat integratsiya targeting sifatini yaxshilashga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Qamrov va inklyuzivlik bo'yicha olingan natijalar ham ijobiy tendensiyalarni namoyon etdi. Raqamli transformatsiya natijasida ijtimoiy yordam bilan qamrab olingan aholi ulushi 10–15 foiz punktga oshgan. Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi aholi, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar orasida ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalanish darajasi sezilarli kengaygan. Bu holat integratsiyalashgan tizimlar orqali

axborotga kirish va proaktiv xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarining oshgani bilan izohlanadi.

Foydalanuvchi tajribasi bo'yicha o'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, respondentlarning qariyb 65–70 foizi ijtimoiy himoya xizmatlaridan foydalanish jarayoni avvalgiga nisbatan ancha qulaylashganini bildirgan. Qoniqish darajasi 5 ballik shkalada o'rtacha 3,2 dan 4,1 gacha oshgan. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy guruhlar orasida raqamli xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklar saqlanib qolayotgani ham aniqlangan bo'lib, bu holat raqamli tafovut muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Integratsiya tizim darajasida boshqaruv va muvofiqlikni kuchaytirs, jarayon darajasida xizmatlar tezkorligini ta'minlaydi, natija darajasida esa qamrov, targeting va foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi. Ushbu natijalar taklif etilgan metodologiyaning amaliy va ilmiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

МУХОКАМА

Olingan natijalar raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va ko'p darajali jarayon ekanini ko'rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalarni joriy etishning o'zi ijtimoiy himoya tizimining yuqori samaradorligini kafolatlamaydi; asosiy natijalar aynan integratsiya darajasi, institutlararo muvofiqlik va boshqaruv mexanizmlarining moslashuvchanligiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalarini talqin qilishda texnologik omillar bilan bir qatorda institutsional, tashkiliy va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarur.

Tizim darajasidagi natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, yagona ijtimoiy reyestr va integratsiyalashgan axborot tizimlari fragmentatsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlar bazalarining uyg'unlashuvi qaror qabul qilish jarayonida axborot to'liqligi va ishonchliligini oshirgan bo'lsa-da, bu jarayon barcha hudud va institutlarda bir xil natija bermagan. Integratsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda samaradorlik sezilarli oshgan, integratsiya sust bo'lgan hududlarda esa raqamli

transformatsiyaning ijobiy ta'siri cheklangan holda namoyon bo'lgan. Bu holat xalqaro adabiyotlarda qayd etilganidek, ijtimoiy himoya tizimlarida "raqamli siloslar" saqlanib qolishi umumiy samaradorlikni pasaytirishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jarayon darajasidagi natijalarni muhokama qilish raqamli transformatsiya xizmatlar ko'rsatish tezkorligi va qulayligini oshirganini ko'rsatadi. Ijtimoiy yordamlarni tayinlash va yetkazib berish muddati qisqargani aholining tizimga bo'lgan ishonchini kuchaytirgan. Shu bilan birga, muhokama shuni ko'rsatadiki, jarayonlarni haddan tashqari avtomatlashtirish ayrim murakkab ijtimoiy holatlarda moslashuvchanlikni kamaytirishi mumkin. Xususan, standart algoritmlar bilan baholab bo'lmaydigan ijtimoiy risklar mavjud bo'lgan holatlarda inson omilining saqlanib qolishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat raqamli transformatsiya sharoitida "human-in-the-loop" yondashuvining dolzarbligini ko'rsatadi.

G2P to'lovlar integratsiyasi bo'yicha olingan natijalar raqamli moliyaviy infratuzilmaning ijtimoiy himoya tizimidagi strategik ahamiyatini ochib beradi. Tranzaksiya xarajatlarning qisqarishi va to'lovlar kechikishining kamayishi davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirgan. Biroq muhokama jarayonida aniqlanishicha, raqamli to'lov mexanizmlarining samarasi bank infratuzilmasi va moliyaviy savodxonlik darajasiga bevosita bog'liq. Ayrim ijtimoiy guruhlar uchun raqamli to'lovlar qo'shimcha qulaylik yaratgan bo'lsa, boshqalar uchun u yangi to'siqlarni yuzaga keltirgan. Bu holat integratsiyani baholashda moliyaviy inklyuzivlik mezonini alohida hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Natija darajasidagi muhokamalar integratsiyalashgan raqamli tizimlarning qamrov va targeting sifatiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Exclusion error va inclusion error ko'rsatkichlarining pasayishi integratsiya ehtiyojmand aholini aniqlash mexanizmlarini aniqroq qilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli tafovut muammosi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Internetga kirish imkoniyati cheklangan, raqamli ko'nikmalari past bo'lgan yoki yoshi katta aholi qatlamlari uchun integratsiyalashgan raqamli tizimlar kutilgan darajada samarali ishlamasligi mumkin.

Ushbu holat ijtimoiy himoya tizimining inklyuzivlik tamoyiliga putur yetkazishi ehtimolini oshiradi.

Foydalanuvchi tajribasi bo'yicha natijalarni muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirgan bo'lsa-da, foydalanuvchi qoniqishi doimiy ravishda yuqori bo'lib qolishi uchun tizimlar foydalanuvchi ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Qoniqish darajasining oshishi ijobiy signal bo'lsa-da, u integratsiyaning uzoq muddatli ijtimoiy ta'sirini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli, foydalanuvchi tajribasi ko'rsatkichlarini qamrov, natijadorlik va ijtimoiy ta'sir indikatorlari bilan birgalikda talqin qilish metodologik jihatdan muhimdir.

Tadqiqot natijalarini xalqaro tajriba bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi umumiy global tendensiyalar bilan mos rivojlanmoqda. Biroq mahalla institutining ijtimoiy himoya tizimidagi faol ishtiroki va proaktiv yordam mexanizmlarining shakllanib borayotgani milliy modelning o'ziga xos jihatlari sifatida ajralib turadi. Bu holat integratsiya jarayonlarini baholashda universal yondashuvlardan tashqari, milliy va hududiy xususiyatlarni hisobga oluvchi moslashuvchan metodologiyalarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasi samaradorligini oshirish uchun faqat texnologik modernizatsiya yetarli emasligini ko'rsatadi. Integratsiya institutsional islohotlar, huquqiy-me'yoriy bazani moslashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va raqamli savodxonlikni rivojlantirish bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina barqaror natijalarga erishish mumkin. Tadqiqotda taklif etilgan yondashuv ana shu murakkab o'zaro bog'liqliklarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan siyosiy qarorlar ishlab chiqish uchun muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimlari integratsiyasi masalasi ilmiy-metodologik nuqtayi nazardan kompleks yondashuv

asosida tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya ijtimoiy himoya tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lsa-da, uning real ta'siri asosan tizim elementlari o'rtasidagi integratsiya darajasi, institutlararo muvofiqlik va boshqaruv mexanizmlarining moslashuvchanligiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu bois raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini ijtimoiy himoya siyosati bilan uyg'un holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan axborot tizimlari, yagona ijtimoiy reyestrlar va G2P raqamli to'lov mexanizmlarining joriy etilishi fragmentatsiyalashgan ijtimoiy himoya tizimlaridan samaraliroq va barqarorroq modellariga o'tishga imkon berishini tasdiqlaydi. Tizim darajasida integratsiya ma'lumotlar almashinuvi va qaror qabul qilish sifatini oshirgan bo'lsa, jarayon darajasida xizmatlar ko'rsatish tezkorligi va uzluksizligini ta'minlagan, natija darajasida esa qamrov, targeting aniqligi va foydalanuvchi tajribasini yaxshilagan.

Shu bilan birga, tadqiqot raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bog'liq muayyan cheklovlar va risklar mavjudligini ham ko'rsatdi. Raqamli tafovut, moliyaviy va raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi integratsiyalashgan tizimlarning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bu holat ijtimoiy himoya tizimlarini raqamlashtirishda inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini ustuvor qo'yish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur maqolaning muhim ilmiy natijalaridan biri raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya integratsiyasini baholash uchun tizimli va jarayonli metodologik yondashuv ishlab chiqilganidadir. Taklif etilgan yondashuv integratsiyani faqat texnologik jihat sifatida emas, balki institutsional, tashkiliy va ijtimoiy jarayonlar majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu metodologiya ijtimoiy himoya tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan, tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya asosida ijtimoiy himoya tizimlarini integratsiyalash jarayonini takomillashtirish, davlat ijtimoiy siyosatini yanada samarali tashkil etish va

kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda qo'llanishi mumkin. Kelgusida ushbu yo'nalishda empirik ma'lumotlar bazasini kengaytirish, integratsiyaning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholash hamda raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida ijtimoiy himoya tizimlarining barqarorligini ta'minlash masalalarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Stiglitz J.E. People, Power, and Profits: Progressive Capitalism for an Age of Discontent. New York: W.W. Norton & Company, 2020.
2. International Labour Organization. World Social Protection Report: Universal Social Protection for Sustainable Development. Geneva: ILO, 2017.
3. International Labour Organization. Digitalization and Social Protection: Opportunities and Challenges. Geneva: ILO, 2021.
4. International Labour Organization, ISSA. Social Security and Digitalization for an Inclusive Future. Geneva, 2022.
5. UNICEF. Social Protection Information Systems: A Technical Note. New York: UNICEF, 2019.
6. UNICEF. Digital Social Protection and Inclusion: Guidance Note. New York: UNICEF, 2021.
7. World Bank. Digital Delivery Systems for Social Protection and Labor. Washington, DC: World Bank, 2018.
8. World Bank. Social Registries for Social Assistance and Beyond: A Guidance Note and Assessment Tool. Washington, DC: World Bank, 2020.
9. World Bank. Playbook on Digital Social Protection Delivery Systems. Washington, DC: World Bank, 2022.
10. World Bank. Social Protection and Jobs: Digital Transformation and Integrated Systems. Washington, DC: World Bank, 2023.
11. OECD. Social Protection in the Digital Age: Challenges and Opportunities. Paris: OECD Publishing, 2019.

12. OECD. Modernising Access to Social Protection. Paris: OECD Publishing, 2024.
13. Komiljon o'g, A. M. R. (2025). OZBEKISTONDA IJTIMOYIY NAFAQALAR TIZIMINI RIVOJLANISHI. *Conferencea*, 1-8.
14. Aliyev, M. R. (2023). Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(9).
15. Ugli, A. M. K. (2023). COOPERATION WITH INTERNATIONAL FINANCIAL ORGANIZATIONS: CURRENT STATE AND PROSPECTIVE DIRECTIONS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(02), 141-145.
16. Aliev, M. Practice of Pension and Material Assistance for Low-income Families: Problems and Their Solutions. *Economic Development and Analysis*, 2(2), 291-298.
17. Ma'ruf, A., & Tilovbek, S. (2024). THE ROLE OF SOCIAL SECURITY CONTRIBUTIONS IN PENSION PROVISION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(05), 51-56.